

Qadimgi turkiy til va hozirgi o'zbek adabiy tili morfologiyasidagi farqli tomonlar

Azamat Xolnazarov, Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 1 maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi
O'zbekiston respublikasi

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы морфологии древнетюркского языка. Показаны пути эволюционирования древнетюркского, древнеузбекского и современного узбекского языка.

Ключевые слова: древнетюркский язык, древнеузбекский язык, современный узбекский язык.

O'zbek adabiy tili tarixini, qadimgi turkiy tilni o'rganish XX asr boshlaridan e'tiboran boshlandi. Qadimgi turkiy tilni o'rganish borasida G.Abdurahmonov, A.Rustamov, B.O'rinboyev, N.Abdurahmonov, M.Tursunpo'latovlarning ishlarini, eski o'zbek tilini o'rganish bo'yicha F.Abdullayev, G.Abdurahmonov, G.G'ulomov, Sh.Shukurov, B.To'yichiboyev, H.Doniyorovlarning ishlarini, o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Nurmonov, A.Aliyev, J.Muxtorov, U.Sanaqulov, H.Doniyorov, E.Fozilov va boshqalarning ishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Eski o'zbek tilini, o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda rus tilshunoslari V.V.Radlov, S.M.Malov, A.N.Kononov, A.N.Borovkovlarning o'rnini alohida ta'kidlash kerak bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, qadimgi turkiy til ham hozirgi o'zbek adabiy tili kabi agglyutinativdir. Lekin har bir davr tilining ham morfologik ham leksik jihatdan ma'lum farqlari o'ziga xos xususiyatlari ham bo'ladi. Demakki, qadimgi turkiy til eski o'zbek tili morfologiyasi, leksikasi, sintaksisining o'ziga xos farqli tomonlari bor. Bu farqlar birinchi navbatda lug'at sostavida ko'rinadi.

M: Turk tudun qanin bo'lmayin. Tabg'achga azrilti, qanlanti, qanin qodun Tabg'achg'a yana ichikdik. Tengri ancha temish ering: qanbertim. Ya'ni turk xalqi xoni bilan bo'lmayin, Tabg'achdan ayrildi. Xonlik bo'ldi. Xonini qo'yib, Tabg'achga qo'shildi. (taslim bo'ldi) Tangri shunday degan shekilli: xon berdim.

Shu birgina jumlagga e'tibor beradigan bo'lsak, qadimgi turkiy til bilan hozirgi o'zbek adabiy til o'rtasidagi fonetik, morfologik, leksik farqlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan: Tangrida so'zidagi -da qo'shimchasi hozirgi o'zbek adabiy tilidagi dan chiqish kelishigi o'rnida tabg'achqa so'zidagi qa tabg'achga ya'ni, -ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi tariqasida ishlatilgan. Lekin qadimgi turkiy tilda qo'llanilgan -qa affiksi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ishlatiladi. M: boqqa, yiroqqa, so'roqqa kabi.

Qadimgi turkiy tilda qo'llangan to'dun so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida xalq, bitik so'zi kitob, ida so'z urug' tariqasida qo'llaniladi.

Qadimgi turkiy tilda tushum kelishigi -g', -ig', -ug', -g, (-ich, -uch) -n, -nu tariqasida ishlatilgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida tushum kelishigining affiksi -ni, kimni? nimani? tariqasida ishlatiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu kelishikning affiksini olgan so'z harakatning to'la ravishda o'z ustiga olgan predmetning nomini bildiradi. Masalan: Onangni kaftingda tutsang, singlingni boshingda tut (A.Q)

Bu kelishik badiiy adabiyotda -n, -i, shaklida ham qo'llaniladi.

Masalan:

Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lar, shohin bukadi. (H.O)

Ikki tanobingni qilay o'n tanob,
Yurtingni quydirib aylay xarob. (M.)

Qadimgi turkiy tilda qaratqich kelishigi affiksi -ning, -nuq, -iq, -ing, -un tariqasida ishlatilgan. Bir affiksning turlicha shaklda qo'llanishi so'z tarkibidagi unli lablashgan yoki lablashmaganligiga bog'liq. So'z tarkibida lablangan unli bo'lsa -nuq, -nung, -uq, -ung tariqasida lablanmagan unli bo'lsa -nang, -ning, -ing kabi ko'rinishlarda ishlatilgan.

Tunyuquq baning ozun (Tunyuquq) udi ten ozun.

Qadimgi turkiy tilda junalish kelishigi qo'shimchasi quyidagicha qo'llanilgan: -ka, -g'a, -ru, -ra, -r, formasi jarangsiz undosh bilan tugagan otlarga qo'shiladi, -g'a varianti esa unli yoki jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilgan. Masalan: Bu turuk budunqa yaraqlig' yag'it kelturmadim, tog'unlug atig' yutur madim. Eltirish qig'an qazg'anmisar. (Tunyuquq)

Ya'ni bu turk qurolli dushmani keltirmadim, yalovli otni yugurturmadim. Eltarish xoqon muvaffaqiyat qozonmasa.

Jo'nalish kelishigining -o, -e variantlari ham keng iste'molda bo'lgan. Masalan: uzi qaninima. Jo'nalish kelishigining bu variantlari I-II shaxs egalik affiksining birlik va ko'plik formasi bilan tugagan so'zlarga ham qo'shiladi.

Jo'nalish kelishigi affiksining -g'aru, -garu, -qaru, -ru, -ra, -ri variantlarining so'zlariga qo'shilishi ham singarmanizm hodisasiga asoslangan. Masalan: ug'uz+aru, abgaru, yag'agaru (Ya.M.T), etru, tabaru (Dlt)

Hozirgi o'zbek tilida jo'nalish kelishigiga -ning affiksi -ga, -qa, -ka dir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu kelishikning asosiy qo'shimchasi -ga bo'lib, -k, -g, -q, -g' tovushlari bilan tugagan negizlardan tashqari, barcha hollarda -ga qo'shimchasi ishlatiladi.

Agar negiz -q jarangsiz tovush bilan tugasa, affiks boshidagi g- tovushi jarangsizlashadi va -ka shaklini oladi. Masalan: Bu yoshlikka ong - bilimdan qanot bog'lagan. (G'.G')

Qadimgi turkiy tildan XV asrgacha bo'lgan turkiy tilning morfologik strukturalari: so'zlarning yasalishi, otlarda ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini olishi, fe'ning harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh formalari, shuningdek, bu so'z turkumlarining orttirma, nisbiy, majhul darajalari, zamon kategoriyalari, sifat, ravish kabilar hozirgi turkiy tillardan deyarli farq qilmaydi. Lekin sonlar strukturasi jihatdan turli affikslarning har

xil fonetik qo'shimchalarga ega bo'lishi bilan farqlanadi.

Qadimgi turkiy til morfologiyasi, eski o'zbek tili morfologiyasi, hozirgi o'zbek tili morfologiyasidagi ot, sifat, son va boshqa so'z turkumlari (yasalishi) bir-birlaridan qisman bo'lsa ham farqlanadi. [2:166] Dunyodagi barcha tillar o'ziga xos bo'lgan eng asosiy belgilari, eng muhim tomonlari e'tiborga olingan holda tasniflanadi.

Dunyoda mavjud bo'lgan tillar birinchi navbatda morfologik jihatdan tasnif qilinadi. Bu usul tillarning kelib chiqishini e'tiborga olmaydi. U, eng avvalo, har bir tilning grammatik qurilishidagi so'z, turlovchi va tuslovchi qo'shimchalarning bor-yo'qligi, ularning xususiyatlari va so'zning yasalishi tomonlarini e'tiborga oladi. Morfologik usul barcha tillarni ikki asosiy guruhga ajratadi:

1. Qo'shimchali (affiksali tillar). Bunday tillarda nutqdagi so'zlar bir-biri bilan turli qo'shimchalar orqali bog'lanadi.

2. Qo'shimchasiz (affiksiz tillar). Bunday tillarda nutqdagi so'zlar bir-biriga bog'lanishi so'z tartibiga bog'liq bo'lishi manbalarda qayd etiladi. [5:145]

Ilmiy va nazariy adabiyotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, morfologik usulga asoslangan qo'shimchali tillar yana ikki guruhga bo'linishi qayd etilgan:[8:103]

1. Agglyutinativ tillar (agglutinate-lotincha so'z bo'lib, "ulash", "yopishtirish"- degan ma'noni bildiradi).

2. Flektiv tillar (flexiu-lotincha so'z bo'lib, "anglamoq", "buklamoq") kabi ma'nolarni anglatadi.

Qadimgi turkiy til morfologik jihatidan hozirgi turkiy tillar singari agglyutinativdir. So'z formalari so'zning negiziga maxsus qo'shimchalarni muayyan tartibda qo'shish yo'li bilan yasaladigan tillar agglyutinativ tillar[1:77] deb ataladi.

Agglyutinativ tillarda so'z o'zagiga turli qo'shimchalar qo'shiladi. Bunday tillarda so'z o'zagiga turli qo'shimchalar qo'shilganda ham uning shakli o'zgarmaydi, shuningdek, so'z o'zagi o'zining mustaqil ma'nosini ham bir muncha saqlab qoldi. Masalan, o'zbek tilida ish so'ziga turli qo'shimchalar qo'shilganda uning shakli o'zgarmaydi: ishga, ishdan, ishchi kabi. Shuningdek, so'z o'zagi o'z shaklini o'zgartirmaydi.

Qadimgi turkiy tildagi morfemalar hozirgi o'zbek adabiy tili va singarmonizmni yo'qotgan shevalardan singamonistik variantlarning borligi bilan farqlanadi. Leksik bu farq sof morfologik farq bo'lmay, fonetik farqdir.

Qadimgi turkiy til morfologiyasi eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tili morfologiyasida ma'lum jihatlari bilan farqlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov G'. Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Toshkent. "Fan". 1982-yil, 77-bet.
2. Abdurahmonov A. Qadimgi turkiy til, T. "Fan". 1989-yil, 166 bet.
3. Abdurahmonov G'. Rustamov A. Qadimgi turkiy til. T. "Fan". 1982-yil, 280 bet.
4. Aliyev A va boshqalar. "O'zbek adabiy tili tarixi" T. "O'qituvchi". 1996-yil, 210 bet.
5. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. "O'qituvchi". 1996-yil, 145-bet.
6. Abidov B.U. Qadimgi sharq tarixi. T. "Fan". 1973-yil, 260 bet.
7. Begmatov Ye. Tursunpo'latov M. "O'zbek nutqi madaniyati asoslari" T. "O'qituvchi". 1991-yil, 137 bet
8. Qo'chqortoyev N. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. "Fan". 1975-yil, 103-bet.